

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOGNITIV-PRAGMATIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI

To'rabekova Aziza Mirzabek qizi

Nizomiy nomidagi TDPU tayanch doktoranti

azizatorabekova4@gmail.com

+99897-903-95-96

Annotatsiya. *Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning metodologik asoslari berilgan. Mazkur mavzu yuzasidan xorijlik va respublika olimlarining ilmiy ishlari tahlil qilingan. Bilish nazariyasi haqidagi ma'lumotlar va oliy ta'lim muassasalari uchun yaratilgan darsliklar tahlili berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *kognitiv-pragmatik, kompetensiya, til ta'limi, metodika, bilish nazariyasi, Blum taksonomiyasi, suhbat metodi.*

Аннотация. *В статье представлены методологические основы совершенствования методики развития когнитивно-прагматических компетенций будущих учителей начальных классов. Проанализированы научные работы зарубежных и отечественных ученых по данной теме. Приведены сведения о теории познания и анализ учебников, созданных для высших учебных заведений.*

Ключевые слова: *когнитивно-прагматический, компетенция, языковое обучение, методика, теория познания, таксономический Блум, метод беседы.*

Annotation. *The article presents the methodological foundations for improving the methodology for developing cognitive-pragmatic competencies of future elementary school teachers. The scientific works of foreign and republican scientists on this topic have been analyzed. Information on the theory of knowledge and an analysis of textbooks created for higher education institutions are presented.*

Keywords: *cognitive-pragmatic, competence, language education, methodology, theory of cognition, Bloom's taxonomy, the interview method.*

Til ta'limi nazariyasida kognitiv va pragmatik kompetensiya axborotlar bilan ishlash, ulardan foydalanish va qayta ishlash, ilm-fan, texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish va ulardan amaliyotda samarali foydalanish, imloviy, ishoraviy va uslubiy savodxonlik, nutqiy faollik kabi ta'limiy hamda lingvistik kompetensiyalar negizida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining

kognitiv-pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bugungi kun oliy ta'lim o'qituvchilari oldida turgan dolzarb muammolardandir. Kognitiv va pragmatik kompetentlikni kompleks tizimli tarzda tahlilini oshirish, shunga taalluqli nazariyalarni tanqidiy o'rganib, mantiqiy munosabat bildirish, og'zaki va yozma nutq malakalarida uning xususiyatlarini yorqin aks ettirish, kommunikatsion jarayonda shaxs va fikr erkinligiga e'tibor qaratish, muloqot sharoitini aniqlash, uning imkoniyatlarini o'rganishdan iborat.

Shu o'rinda bilish nazariyasiga to'xtalsak. Amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan asos solingan savol-topshiriqlar jamlanmasi – bilish faoliyati darajalariga asoslangan o'quv maqsadlari taksonomiyasi o'quvchilar o'zlashtirishining ma'lum darajasini ko'rsatib aniqlab beruvchi aniq bosqichlardan iborat.

Blum taksonomiyasi o'quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy - qadriyatli), psixomotor (harakat). O'quvchilarning kompetentligini oshirishda har bir soha bo'yicha mustaqil ta'lim jarayonidagi holati haqida to'xtalib o'tamiz. **1. Kognitiv soha.** Bu sohada olingan bilimlarni mustaqil ravishda qayta takrorlash, ularni egallangan ko'nikma va malakalar bilan uyg'unlashtirish natijasida yangi mustaqil faoliyat yuritish va mashq bajarish qonun - qoidalarini o'rganish zaruratiga tegishli o'quv maqsadlari kiritiladi. **2. Affektiv soha.** Mustaqil ish bajarish jarayonida qiziqish va moyilliklarni shakllantirish, ichki hamda tashqi psixologik ta'sirlar natijasida bilim olish munosabatni shakllantirish, uni mustaqil faoliyat davomida tushunib yetish orqali faoliyat amaliyotiga tatbiq qilish maqsadlari kiritiladi. **3. Psixomotorli soha.** Bunga mustaqil ish bajarish jarayonidagi psixologik faoliyat, jarayonlarda jismoniy faoliyat natijasida, asab muskullarini markazlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq maqsadlar kiritiladi³⁰.

Pedagogik nuqtayi nazardan bilish faolligi asosiy funksiyalarga ko'ra, ikki turga ajratiladi: adaptiv va produktiv. Faollikning adaptiv turi layoqatni hosil qiladi, produktiv esa, bevosita moslashuv uchun zarur bo'lmagan turli psixik o'zgarishlarning yuzaga kelishi va shakllanishining asosini tashkil etadi³¹.

Pedagogik fasilitatsiya vositasida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tadqiq etish asosida L.Bektursinova bilish faoliyatining uchta darajasini ajratib ko'rsatadi: reproduktiv (namuna, tanish vaziyatlar asosida o'quv topshiriqlarini bajarish); variativ (algoritmash, variativlikka asoslangan topshiriqlarni bajarish); ijodiy (tadqiqotchilik, ijodiy topshiriqlarni bajarishga doir mustaqil

³⁰G.H.Qo'ysinova. Mustaqil ta'limni Blum taksonomiyasi asosida tashkil etish. 2023.


³¹Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении и обучении / А.М. Матюшкин. – М.: Изд

o'quv faoliyati)³². Tadqiqotchi tomonidan taklif etilgan tasnifning birinchi va ikkinchi darajalari bilishning adaptiv, uchinchi esa, produktiv turiga taallukli ekanligini alohida qayd etib o'tish lozim.

Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetensiyalarini zamon talablari asosida takomillashtirish bugungi kun pedagoglari olididagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetentligin rivojlantirishda o'rganilish obyekti sifatida K.Qosimova va bir qator olimlar tomonidan tuzilgan "Ona tili o'qitish metodikasi" darsligi tanlab olindi. Mazkur darslikda boshlang'ich sinf ona tili o'qitish metodikasi kursining maqsad va vazifalari, bo'limlari: savod o'rgatish metodikasi, sinfda va sinfdan tashqari o'qish metodikasi, fonetika, grafika, grammatika, so'z yasalishi, imlo o'qitish metodikasi; va o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish metodikasi ta'lim oldiga qo'yilgan zamonaviy talablar asosida bayon qilingan. Shu bilan birga, ilmiy-nazariy ma'lumotlarni amaliyotga tadbiiq etish usullari yoritib berilgan. Mazkur darslik mazmunini uchga ajratish mumkin:

1. O'quv materialini nazariy ma'lumotlar.
2. Metodik tayyorgarlikka namunalari.
3. Nutqiy va kasbiy rivojlanishga oid mashq va topshiriqlar.

1-rasm.



1-bosqich. Da'vat bosqichida darsning maqsadi bayon qilinadi. Nazariy ma'lumot, metod va topshiriq keltiriladi.

2-bosqich. Anglash bosqichida o'qish, mazmun, metod, topshiriq, mustaqil ish, savol va topshiriqlar berib boriladi.

3-bosqich. Fikrlash bosqichida mavzu yuzasidan egallangan bilimlar mustahkamlanib, nutqiy faoliyatda qo'llash ko'nikmasi va xulosa chiqarishga o'rgatiladi.

³²Bektursinova L.X. Pedagogik fasilitatsiya vositasida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. – Nukus, 2019. – 114-b.

Savod o'rgatish metodikasining ilmiy-psixologik va lingvistik asoslari mavzusidagi o'qish va yozish nutq faoliyatining turi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida bu faoliyat turlari amalga oshirilishi va o'qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib, avtomatlashtirish darajasiga yetkazilishi haqida fikr bildirilgan. O'qish, yozish bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayon, chunki belgilangan talablar tarkibida ular alohida qayd etilgan. Vaholangki, yozish deganda dastlabki vazifamiz bu alifboni o'rgatishdir. Bunda yozuvlarning tarixiy taraqqiyoti amaliyotga tadbiiq etilishi muayyan darajada o'qituvchi va o'quvchiga ta'sir ko'rsatishi muqarrardir. Bizning nazarimizda birinchi navbatda ta'lim subyektlarining kognitiv-pragmatik kompetentligini rivojlantirishda tilning fonetik sathi bilan mukammal ishlatish bo'yicha izchillik zarur. Bu sath harf va tovushning farqlanishi, to'g'ri talaffuz, keng va tor unlilar imlosi, shu bilan birga, undoshlar, ng tovushi, harfiy birikmalar: ch, sh, ng, j harfining ikki tovushni ifodalashi va shu bo'yicha analitik-sintetik mashqlar ulardagi ko'nikmalarni o'stirish uchun muammolarni bartaraf qilishimiz kerak deb hisoblaymiz.

Professor Q.Husanboyeva boshchiligida bir qator olimlar tomonidan yozilgan "Ona tili va o'qish savodxonligi metodikasi"³³ darsligida Savod o'rgatish (yozuv va nutqqa o'rgatish) bo'limidagi "Savod o'rgatishning tayyorgarlik davrida o'quvchilar bilan ishlash. "Alifbe" darsligining qurilishi" mavzusida muayyan davr funksiyalari izohlab berilgan. Bolalarga boshlang'ich ta'limga kelishi maktab binosini, tevarak atrof, xonani, o'z vaqtida darsga kelishni, berilgan topshiriqlarni vaqtida bajarishi, savollarga javob berishi, o'rtoqlarining javobini tinglashiga odatlanishi tushuntiriladi. Hali bola so'zlarni o'qib, uning ma'nosini tushunishga unchalik ulgurmagani bolani savod o'rgatishga yo'naltiruvchi "Alifbe" darsligini o'qitish bo'yicha tavsiyalar va "Alifbe" darsligining QR kodi berilgan.

Mazkur darslikda "O'qish savodxonligi" darsligidan o'rin olgan badiiy matnlarni o'rganishda qo'llanadigan suhbat metodi nafaqat o'qituvchining o'quvchilar jamoasi bilan, balki o'quvchilarning o'zaro dialogik hamkorligini ham nazarda tutadi. Bu metodning mohiyati o'qituvchi tomonidan o'quv materialidagi yetakchi, o'quvchi ko'nglidan o'tsa u yerda o'zidan ijobiy iz qoldirishi mumkin bo'lgan qarashlarni qiziqarli tarzda savol yoki topshiriqqa aylantira bilish, o'quvchilarni javob topish yo'llarini izlashga, bilim va ma'naviy sifatlar, xulosa, qonuniyat va qoidalarning bolalar tomonidan qayta kashf

³³ Husanboyeva Q., Hazratqulov M, Xolsaidov F. Ona tili va o'qish savodxonligi./Darslik/.- Toshkent: "innovatsiya-ziyo", 2022. 252 bet.

etilishiga, tarbiyalanuvchilarini yaratish lazzatini tuyishga jalb qilishdan iboratdir³⁴, deb suhbat metodiga alohida fikr-mulohazalar berib o'tilgan.

Shuningdek, A.Tojiyevning "Adabiyot darslarida suhbat" kitobida bu metodning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritilgan³⁵.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetensiyalarini shakllantirishni takomillashtirishda bilish nazariyasi, shu jumladan, Blum taksonomiyasiga asoslangan holda bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv-pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish samarali natijalar beradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv-pragmatik kompetensiyalarini takomillashtirish jarayonida o'qish, tinglash, qayta hikoyalash va yozish, tushunish, anglash, qo'llash va baholash kabi kognitiv-pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish ta'limiy texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida takomillashtirish ilmiy-metodik takomiliga asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bektursinova L.X. Pedagogik fasilitatsiya vositasida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. – Nukus, 2019. – 114-b.

2. Husanboyeva Q., Hazratqulov M, Xolsaidov F. Ona tili va o'qish savodxonligi./Darslik/.- Toshkent: "innovatsiya-ziyo", 2022. 252 bet.

3. Qo'ysinova G.H. Mustaqil ta'limni Blum taksonomiyasi asosida tashkil etish. 2023.

4. Tojiyev A. Adabiyot darslarida suhbat. – T.: "O'qituvchi", 1997.

5. Матюшкин А.М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении и обучении / А.М. Матюшкин. – М.: Изд

³⁴ Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Xolsaidov F. Ona tili va o'qish savodxonligi metodikasi./Darslik?.- Toshkent: "Innovatsiya-ziyo", 2022. 252 bet.

³⁵ Tojiyev A. Adabiyot darslarida suhbat. – T.: "O'qituvchi", 1997.